

GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA MILLIY DINNI SAQLASH

Tolipov Xushnudbek

*Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi
Norimonova Gulmira Ulug'bek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining milliy-diniy qadriyatlarimizga ko'rsatayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida so'z boradi. Bugungi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida milliy dinimizni asrab-avaylash, uni yosh avlodning ongiga singdirish masalasi tobora dolzarb bo'lib qolmoqda. Maqolada globallashuv sharoitida diniy qadriyatlarni saqlashda oila, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarning o'рни katta ekanligi haqida so'z boradi. Xususan, milliy o'zlikni yo'qotmasdan, zamonaviy taraqqiyotga moslashish, yoshlar ongida milliy va diniy g'ururni shakllantirishning foydali yo'llari mavjud. Men globallashuvga qarshi emas, balki uning imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda, milliy dinni mustahkamlash zarur deb o'ylayman.

Annotation: In this article, this article is about the positive and negative impacts of globalization to our national values. The issue of preserving our national religion today is becoming increasingly relevant to preserve our national religion, and the importance of it to the younger generation. The article says that the role of family, educational institutions, public organizations and mass media is large in maintaining religious values in the context of globalization. In particular, there are useful ways to adapt to modern development, to adapt to modern development, to form a national and religious prord in the minds of youth. I think it is necessary to strengthen the national religion, not against globalization, but using its best possible possible opportunities wisely.

Аннотация: В этой статье эта статья о положительном и негативном воздействии глобализации на наши национальные ценности. Вопрос о сохранении нашей национальной религии сегодня становится все более актуальной для сохранения нашей национальной религии и важности ее для молодого поколения. В статье говорится, что роль семьи, образовательных учреждений, общественных организаций и СМИ имеет большое значение для поддержания религиозных ценностей в контексте глобализации. В частности,

существуют полезные способы адаптации к современному развитию, адаптироваться к современному развитию, сформировать национальную и религиозную Породу в умах молодежи. Я думаю, что необходимо укрепить национальную религию не против глобализации, а с умом использования своих наилучших возможных возможностей.

Kalit soʻzlar: globallashuv, din, milliy, qadriyat, ong, madaniyat, diniy tashkilotlar, diniy tarbiya, axborot texnologiyalari, ommaviy madaniyat.

Keywords: globalization, religion, national, value, mind, culture, religious organizations, religious culture, information technology, mass culture

Ключевые слова: глобализация, религия, национальная, ценность, разум, культура, религиозные организации, религиозная культура, информационные технологии, массовая культура.

Kirish: Bugungi kunda globallashuv insoniyat taraqqiyotining ajralmas bir qismiga aylanib ulgurgan boʻlib, u siyosiy, iqtisodiy, madaniy va axborot sohalorida katta oʻzgarishlarga sabab boʻlmoqda. Milliy din har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va madaniy merosining ajralmas bir boʻlagidir. U nafaqat ibodat va eʼtiqod tizimi, balki axloqiy-meʼyoriy qadriyatlar, urf-odatlar, turmush tarzi va insonlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, milliy diniy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamon ruhiga mos va hos holda rivojlantirish har bir jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri boʻladi. Milliy din-xalqning tarixiy xotirasi, maʼnaviy dunyosi va axloqiy tayanchlarining ajralmas qismidir. Har bir xalqning ruhiy dunyosini shakllantiruvchi eng asosiy omillardan biri boʻlgan diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularni zamonaviy sharoitlarda yoshlarga yetkazish- bugunni kunning muhim va dolzarb vazifasi.

XXI asr globallashuv davri boʻlib, u insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi sifatida talqin qilinadi. Globallashuv jarayonlari siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maʼnaviy sohalarni toʻliq qamrab olgan. Shu sababli, bugungi kunda dunyo mamlakatlari oʻrtasidagi aloqalar yuqori darajada jadallashmoqda. Turli madaniyatlar, dinlar va qadriyatlarning bir joyda toʻqnashuvi yoki uygʻunlashuvi jarayonida milliy oʻzlik, diniy eʼtiqod va tarixiy-madaniy merosni asrab qolish masalasi juda muhim. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida shunday deyilgan: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan diniga eʼtiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan sindirishga yoʻl qoʻyilmaydi”.

Asosiy qism: Globallashuv bir tomondan taraqqiyot, texnologik yangilanish va ochiqdan ochiq axborot maydonini taʼminlasa, boshqa tomondan u ayrim xalqlarning asrlar davomida shakllangan milliy va diniy qadriyatlariga tahdid solib kelmoqda. Bugungi kunda, ayniqsa, ommaviy madaniyat, gʻarbona hayot tarzi va diniy

befarqlik yoshlar ongiga kuchli ta'sir qilmoqda. Shu sababli, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, diniy-ma'naviy merosni asrab-avaylash va ularni yosh kelajak avlodga to'g'ri yetkazish har qachongidan ham juda muhim masalaga aylanmoqda.

Globalashuv- bu dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ijtimoiy sohalarda o'zaro yaqinlashuvi, axborot texnologiyalari orqali chegaralarning kengayib, madaniy g'oyalar almashinuvi kuchayib borayotgan jarayondir. Bu kabi jarayonlar ijobiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, ko'plab millat va elatlarning o'ziga xos qadriyatlariga va milliy diniga xavf ketirib chiqarmoqda.

Milliy din- bu xalqning tarixiy shakllanish jarayonida uning ma'naviy asosini tashkil qilgan e'tiqodlari va urf-odatlar majmuidir. O'zbekiston misolida olib qarasak, Islom dini ko'p asrlar davomida xalqimizning dunyoqarashi, turmush tarzi va ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Shuning uchun milliy dinni saqlash, uni nafaqat ibodat darajasida, balki u orqali shakllangan axloqiy me'yorlar, ijtimoiy birdamlik, oila qadriyatlari, mehr-oqibat, sabr-toqat singari insoniy fazilatlarni saqlab qolish kerak. Milliy dinni saqlash uchun birinchi navbatda, ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish katta ahamiyatga ega. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida milliy tarix, diniy saboqlar, buyuk allomlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur o'rgatish va uqtirish lozim bo'ladi, albatta. Islom olamida o'zining chuqur ilmiy izlanishlari bilan tanilgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi ulug' zotlarning asarlarini yosh avlodga yetkazish orqali ularning milliy o'zlik va diniy qadriyatlarga bo'lgan hurmatini oshirishimiz kerak. Bulardan tashqari, diniy sohada faoliyat yuritayotgan ulamolar va imom-xatiblar globalashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini chuqur anglab yetgan holda, dinni zamonaviy ijtimoiy muhit bilan uyg'un tarzda tushuntirishlari lozim. Ular yoshlar bilan ochiq va samimiy muloqotda bo'lib, ularni asossiz ekstremistik g'oyalardan, diniy savodsizlikdan himoya qilishda faol ishtirok etishlari lozim bo'ladi. Muhim masalardan yana biri- bu davlat siyosatining milliy diniy qadriyatlarga e'tibori. Vatanimiz tajribasida ko'rilyotganidek, diniy erkinliklar ta'minlanayotgani, masjidlar faoliyati, Haj va Umra ziyoratlari uchun keng imkoniyatlar yaratilganligi, diniy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilganligi-bularning barchasi milliy diniy qadriyatlarni saqlash yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Ayni paytda, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi diniy-ma'rifiy targ'ibotning yangi shakllarini joriy qilishni talab qiladi.

Xulosa: Mening fikrimcha, zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, milliy diniy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi bloggerlar, veb-saytlar, mobil ilovalar va videodarsliklar yaratish orqali yoshlarning e'tiborini jalb qilishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayoni inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir. U butun insoniyat hayotining barcha jabhalariga katta ta'sir qilmoqda. Milliy din-bu nafaqat e'tiqod, balki xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy holati va madaniyatining ajralmas bir

bo‘lagi. Uni asrab-avaylash-bu millat sifatida o‘zligimizni, kelajagimizni saqlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. <http://ipkmvd.uz>;
3. <http://jadid.uz>;
4. <http://iiu.uz>;
5. <http://uz.wikipedia.org>.